

O‘ZBEKISTONDA XALQARO TURIZMNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA YO‘NALISHLARI

Usmonov Sardor

Email: usmonovsardor571@gmail.com

Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi

Boqibilloyev Umarxon Ja’far o‘g‘li

Email: boqibilloyevumarxon@gmail.com

Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada dunyo bo‘ylab rivojlanib boryotgan turizm sohasi mamlakatlarning integratsiyalashuvida muhim ahamiyat kasb etishi tahliliy jihatdan yoritib o‘tilgan. Xalqaro turizm chiqish turizmi hamda xalqaro sayyohlarni qabul qilish bilan bog‘liq holda rivojlanib boradi. Buning uchun mamlakatda sayyohlar uchun yaratilgan imkoniyat hamda qulayliklar birlamchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada shu kabi dolrazb masalalarga to‘xtalib, mamlakatimizning bugungi kundagi sayyohlik yo‘nalishlari atroflicha o‘rganilgan. Ilmiy asoslangan fikrlar hamda tavsiyalarni taqdim etishda nazariya hamda amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqliklar shu bilan birgalikda mualliflarning tadqiqot materiallariga asoslandi.

Kalit so‘zlar: Xalqarolashuv, global turizm, chiqish turizmi, milliy brend, tarmoqlar integratsiyasi, ish bilan bandlike, zamonaviy kasblar.

KIRISH

Bugungi kunda turizm dunyo mamlakatlarida milliy iqtisodiyotning salmoqli daromad keltiruvchi sohalaridan biriga aylanib olgani ko‘pchiligimizga ma’lum. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasining sayyohlik salohiyati jadal sur‘atlar bilan rivojlanib bormoda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016 yil 2 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni taminlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qabul qilgan farmonida “...turizm tarmog‘i uchun, ayniqsa menejment va marketing sohasida malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, gidlar (ekskursiya yetakchilari) tayyorlash, turizm faoliyati subyektlari xodimlarini muntazam ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish” masalasi o‘rta muddatli istiqbolda turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi. Bugungi kunda mamlakat milliy itisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri

bo'lgan turizmni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoda, bu esa mazkur sohaning tez rivojlanishi, yangi ish o'rinlarini yaratish, sohadan kelayotgan daromadlarni oshirish, aholi turmush darajasi va yashash sifatini yaxshilash, shuningdek, investitsion jozibadorlikni yanada oshirishga qaratilgan.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Mazkur sohada olib borilyotgan izchil ishlarning natijasida mamlakatimizda turizm tarmog'ining jadal o'sib borishi maqsad qilingan bo'lib, ammo, hozirda bu masalada muayyan bir rentabillik kuzatilganicha yo'q. Shunday bo'lishiga qaramasdan mamalakatimizga xalqaro sayyohlar oqimi yildan yilga o'sib bormoqda. Turizm tarmog'ining asosiy tushunchasi bo'lgan xalqaro chiqish turizmi deb ma'lum hududda istiqomat qiluvchi aholi vakillarining o'z mamlakati hududidan turistik maqsadlarda vaqtincha boshqa davlatlarda bo'lishi tushuniladi. Dunyoda ushbu jarayon biroz oldin boshlangan bo'lib uning tarixi turli manbalarda turlicha izohlanadi. Dunyoda xalqaro turizmning shakllanish jarayoni turli adabiyotlarda yetib kelishicha quyidagicha ommalashib brogan. Ma'lumki, dastlabki turistik sayohatlar savdo sotiq maqsadlarida vujudga kelgan. Eramizdan avvalgi, bundan 14 ming yil avvalgi qadimgi Misrda o'ziga xos tusga kirgan Misr shohi Xatshepsut dengiz ekspeditsiyasida sayohat uyushtiradi (Shapoval, 1998). Boylik orttirish maqsadida bundan 2300 yil avval Ksenofont grek portini qurish, savdo rastalari va davlat uylari barpo etishni buyuradi. Bu unga katta daromad olib keladi. Ayni paytda mehmonxona xo'jaligi xizmatlari shakllantiriladi. Ba'zi yunon va rimliklar o'zi yashab turgan shahardan uncha uzoq bo'lmagan tog' va tog' oldi hududlarida dam olish, davolanish va ov qilish uchun maxsus joylarni barpo etishgan. Turizm ayniqsa Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin tez o'sib bordi. K. Liberening ta'rificha, "Yevropada XVIII - asrda turizm yangi ko'rinish oldi va sayyohlar tanishuv, davolanish va dam olish maqsadida hamda savdo-sotiq ahamiyatidagi sayohatlar tez o'sdi" - deb aytadi (Erdavletov, 2000, s.81-84). XVII-XVIII asrda maktab o'quvchilarining Yevropa davlatlari bo'ylab piyoda sayohati tarixga "Buyuk turistik sayohat" bo'lib kirdi. Shu tariqa dunyo xalqlar orasida turizm tushuncha sifatida shakllanib bordi. Bu jarayonlarda O'rta Osiyolik olimlarning ham mehnatlari muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Keyingi bosqichlarda turizm mamlakatlar o'rtasidagi keng madaniy aloqalarni ham tiklay boshladi. Biroq, mamlakatimiz hududi bu jarayonlarga biroz keyin qo'shib borgan. Shunga qaramasdan bugungi kunda madaniy aloqalarning shakllanish va tadbiq etish jarayoni ancha muntazamlashgan deyish mumkin. Hozirga qadar xalqaro turizmning O'zbekistnda shakllanib borishi bilan bog'liq turlicha qarashlar mavjud ammo deyarli adabiyotlarda bu bilan bog'liq aniq ko'rsatkichlarga asoslangan ma'lumotlarni uchratish qiyin bo'lib hisoblanadi. Bu masalada mamlakatimizga tashrif buyirgan sayyohlarning turistik maqsadlarini aniqlab boorish hamda ularning yosh segmentlarini o'rganishga bog'liq amalga oshirilgan

tadbirlardan ma'lum bo'lishicha, O'zbekistn o'zining ko'p yillik boy tarixi, madaniyati, etnografiyasi bilan o'zga tilli xalqlarni o'ziga jalb etmoqda. O'rganishlar davomida mazkur sohaning o'ziga xosliklari hamda mamlakatimizning turistik salohiyati bir biri bilan chambarchas holda yaxlit holga kelganligi ma'lum bo'ldi. Ya'ni bu hududdagi mavjud turizm imkoniyatlari boshqa hududlarning ham asosiy milliy boyligi bilan farq qilishi, ularning turmush tarzidagi xilma-xilliklarda ham namoyon bo'lib borishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Chiqish turizmi — biror-bir mamlakat fuqarosining o'zga mamlakatga sayohat qilish uchun ketishi hisoblanadi. Chiqish turizmi passiv hisoblanadi va valuta mamlakatdan olib chiqib ketiladi. Shu sababdan ko'pchilik mamlakatlarda kirish turizmi turistik (milliy) iqtisodiyotning istiqbolli rivojlanishi yo'nalishlaridan sanaladi. Mamlakatlar turizmi iqtisodiyotini o'rganish chog'ida ularning rivojlanish yo'nalishi va ishlash samaradorligini oshirishga «Milliy turizm», «Xalqaro turizm» tushunchalari sifatida qaralishi zarur. Keltirilgan ta'riflar nuqtayi nazaridan ichki va chiqish turizmi milliy turizmga kirililadi. Xalqaro turizm — muntazam va aniq bir maqsadga qaratilgan korxonalarining turizm sohasidagi faoliyati bilan bog'liq holda, biron bir mamlakat hududida (kirish turizmi) turistik xizmatlar va turistik mahsulotlarni biron-bir mamlakatda (chiqish turizmi) doimo yashaydigan sayohat qiluvchi shaxslarga taqdim etishdir. Xalqaro turizmga esa kirish va chiqish turizmi kiradi. Mazkur mamlakat doirasidagi turizm bilan shu mamlakatlar qarorlari (ichki turizm) ham, boshqa mamlakatlardan keladiganlar (kirish turizmi) ham shug'ullanadi. Mamlakatlar daromadlarini oshirish nuqtayi nazaridan u ko'proq jalb qiladi. Bu yo'nalishdagi turistik faoliyatning rivojlanishi bir tomondan mamlakatga valuta oqimini, ikkinchi tomondan mazkur mamlakatda yashovchi fuqarolarning pul mablag'larini ko'paytiradi. Bu daromadlar ushbu mamlakatda qoladi va uning iqtisodiyotini rivojlantirishga jalb etiladi. Bundan tashqari, ichki turizm shunday muhim iqtisodiy funktsiyani bajaradiki, mazkur mamlakatda daromad darajasini maromiga yetkazishga yordam beradi. Bu degani shuki, sanoati rivojlangan mintaqalardan fuqarolarni yuqori daromadlari nisbati sust iqtisodiy rivojlangan mintaqalardagi kam daromadli fuqarolarga taqsimlanishiga imkon yaratadi. Lekin bu mintaqalar, odatda, boy tabiiy resurslarga ega.

NATIJALAR

Ilg'or kuzatishlar natijasida ma'lum bo'lishicha O'zbekistonda mavjud turizm imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, Xalqaro turizm doirasidagi yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

- dam olish va rekreatsiya;
- ijtimoiy maqsadlar;
- ishga aloqador va kasbiy (professional) maqsadlar;

- tanishlar, qarindoshlarnikiga tashrif buyurish;
- diniy (ziyosat);
- boshqa maqsadlar.

Ushbu yo‘nalishlardan mamlakatimiz turizmini tashkil etuvchi xalqaro sayyohlar segmentini aniqlash mumkin. Ushbu faoliyatni amalga oshirishda bir qancha omillar mavjud. Dastlab geografik omilga ko‘ra Markaziy Osiyo davlatlari bir biriga yaqin millat va ellatlardan iborat qarindoshlar bo‘lib milliy-hududiy chegaralanish natijasida hozirda turli respublikalar aholisini tashkil etadi. Shunga ko‘ra turizmning bu yo‘nalishi, ya‘ni qarindoshlarni yo‘qlash deb nomlanib keng tarqalgan hisoblanadi. Endigi navbatda demografik segment a‘zolari ijtimoiy maqsadlarni o‘zida mujassam etib shu orqali mazkur yo‘nalishni tashkil etishadi. Bu yo‘nalishda yana diniy turizm tasnifi ham mavjud bo‘lib hisoblanadi. Bu yo‘nalishning asosini mamlakatimiz hududida istiqomat qilib o‘tgan diniy allomalarning qadamjolarini ziyorat qilishi evaziga shakllanib boradi. Ish bilan aloqador bo‘lgan jabhalarda turli soha vakillarining boshqa davlatlardan qulay investitsion loyihalarni amalga oshirishi uchun imkoniyatlarni amalga oshirish jarayonida yuzaga chiqadi. Va nihoyat, yosh jihatidan segmentning ahamiyatli jihatlarini ko‘rib chiqamiz. Birinchidan yuqoridagi xarakterdagi turlarni tashkil etuvchi turistlar qatlami Yoshi jihatidan olib qaralganda, 40-45 yoshni tashkil etadi. Ziyorat hamda shu bilan bog‘liq ijtimoiy maqsadlarni namoyon etuvchi turistlar toifasi esa, o‘rtacha 50-55 yosh va undan yuqori qatlamni tashkil etadi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, yuqorida sanalib o‘tilgan xalqaro turizm yo‘nalishlari yosh toifasi jihatdan klassik xususiyatga ega bo‘lib hisoblanadi hamda bu omil turizm iqtisodiyotida noodatiy hol hisoblanadi. Sababi, bu qatlamda hissiy va psixologik emotsionallikka berilish kam bo‘lib bu omil turizm sohasida muhim belgi sifatida qaraladi. Asosiy turistlar qatlamini yoshlar turizmi ishtirokchilari tashkil etishi uchun esa mamlakatimizda tarixiy shakllangan milliy qadriyatlarni inobatga olish muhim hisoblanadi. Agarda turistlar bilan birgalikda madaniyatning turli shakllari mamlakatga kirib kelishi ehtimoli mavjud bo‘ladi. Bu ham iqtisodiyotning o‘ziga xos ijtimoiy paradoksidir.

O‘zbekiston bo‘yicha barcha ma’lumotlar batafsil			
Yil	Turistlar soni	Kvitansiyalar	YaIMga nisbatan %
2023-yil yanvar-iyun oylari	3,1 mln		
2022-yil	5,2 mln		
2021-yil	1,88 mln		
2020-yil	1,504 mln	261 mln dollar	
2019-yil	6,75 mln	1,68 mlrd dollar	2,8 %
2018-yil	5,35 mln	1,31 mlrd dollar	2,5 %
2017-yil	2,69 mln	835,00 mln dollar	1,3 %

2016-yil	2,03 mln	579,00 mln dollar	0,67 %
2015-yil	1,92 mln	688,00 mln dollar	0,80 %
2014-yil	1,86 mln	660,00 mln dollar	0,82 %
2013-yil	1,97 mln		
2012-yil	1,90 mln		
2011-yil	1,39 mln		
2010-yil	975 000	121,00 mln dollar	0,24 %
2009-yil	1,22 mln	99,00 mlndollar	0,29 %
2008-yil	1,07 mln	64,00 mln dollar	0,22 %
2007-yil	903 000	51,00 mln dollar	0,23 %
2006-yil	560 000	43,00 mln dollar	0,25 %
2005-yil	242 000	28,00 mln dollar	0,20 %
2004-yil	262 000	57,00 mln dollar	0,47 %
2003-yil	231 000	48,00 mln dollar	0,47 %
2002-yil	332 000	68,00 mln dollar	0,70 %
2001-yil	345 000	72,00 mln dollar	0,63 %
2000-yil	302 000	63,00 mln dollar	0,46 %

XULOSA

Yuqoridagi jadvaldan ma'lum bo'ladiki, mamlakatimizda xalqaro turizmning shakllanishi hamda o'sib borishi jarayoni kuzatilmoqda. Buga yaratilayotgan imkoniyatlar va tadbir etilayotgan islohotlarning o'z o'rnida ishlayotganligi ko'rinadi. Ammo hozirda O'zbekistonda turizm sohasiga investitsiyalar eng kam kirib boryotgan tarmoq hisoblanadi. Shuningdek, turizmning shakllanishida davlatlarda vujudga kelayotgan geosiyosiy vaziyatlar hamda dunyo moliyaviy zanjiridagi bog'liqliklarga binoan aks etib bormoqda. Yaqin qo'shnichilik munosabatlarida ham yuz beryotgan siyosiy yo'nalishlar Markaziy Osiyoda tinchlik va turizmga davlatlarning dunyodagi qiyofasini bildiruvchi xavfsizlik sohasining barqarorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi PQ-3217-son «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlari tadbirlar to'g'risida»gi Qarori. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi PQ-3514-son «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. www.lex.uz
3. Здоров А.Б. Организационно-экономические основы развития аграрного туризма. Автореферат. Москва – 2011.
4. Usmanov M.R. Turizm geografiyasi: o'quv qo'llanma. — Samarqand, «SamDU», 2020. 52-53-betlar

5. Conferences, J. &. (2023, March 1). Importance of Rural Tourism Development in Uzbekistan. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/64ZYD>
6. Usmonov S. O ‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirishning ahamiyati //international conferences. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 832-837.
7. Lutfullo I., Sardor U. International journal on economics, finance and sustainable development. – 2023.
8. Usmonov S. O ‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanish //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. SamTSAU Conference 1. – C. 305-311.
9. Ibragimov L. Z., Shodiyorov S. X. O. G. L., Sultonmurodova R. G. Q. Aholining ish bilan bandligini ta’minlashda xorijiy davlatlar tajribasi //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2. – №. 12. – C. 73-78. DOI:10.24412/2181-2454-2022-12-73-78
10. Ibragimov L., Shodiyorov S., Muminjonova S. The studying of theoretical issues of employment of population. Международной научно – практической конференция. Aktobe, 2022. p.32-38. Available from: <https://www.researchgate.net/>
11. Ibragimov, L. Z., Davranova, M.A. The influence of demographic factors to labor market in Samarkand region. Международного научно-исследовательского конкурса. Петрозаводск, 2019. pp.148-155. Available from: <https://www.researchgate.net/>
12. Tojiyeva Z.N., Ibragimov L.Z., Musayev B.M. (2022). O‘zbekistonda demografik modernizatsiyalash. Ilmiy axborotnoma. 3 (133). Samarqand, 102-106 b. Available from: <https://www.researchgate.net/>
13. Ibragimov L., Shodiyorov S. (2021). Changes in the structure of labor resources of southwest Uzbekistan. “Innovations in Environmental Protection for Sustainable Socio-Economic Development: Global and Eurasian Partnership”. International practical science conference. - Kokshetau. pp.192-194. Available from: <https://www.researchgate.net/>